

## UMURTQASIZ HAYVONLAR KO‘P HUJAYRALILARNING KELIB CHIQISHI TO‘G‘RISIDAGI ASOSIY NAZARIYALAR

Abdumalikova Farangiz Abdumutal qizi  
Andijon Davlat Pedagogika instituti  
Aniq va tabiiy fanlar fakulteti  
Biologiya yo‘nalishi 1- bosqich  
102- guruh talabalari

**Annotatsiya:** Barcha ko‘p hujayralilar kelib chiqishi yagona hujayralardan boshlanadi. Gastrey nazariyasiga ko‘ra ko‘p hujayralilarning qadimgi ajdodlari sharsimon kaloniyali hayvonlar bo‘lgan. Bu nazariyani asoschisi- E. Gekkel hisoblanadi. Ko‘p hujayralilarning evalutsiyasi embrional rivojlanishda gastrula stadiyasida ichki ikkinchi embrion varag‘ini blastula devorini blastula bo‘shlig‘iga botib kirishi- invaginatsiya natijasida hosil bo‘lishi bu fikrni tasdiqlaydi.

**Kalit so‘zlar:** I.I.Mechnikov , E. Gekkel, I.Hojdji, Gastrey nazaryasi, Fagositella, invaginatsiya ,gastrula , blastula, immigratsiya, blastopor, sellyurizatsiya.

I.Gastrey nazariyasiga- binoan ko‘p hujayralilarning qadimgi ajdodlari sharsimon kaloniyali hayvonlar bo‘lgan. Bu nazariyaning egasi E. Gekkel ( 1874) hisoblanadi. Gekkel juda kop olimlarning embriologiya sohasidagi ma'lumotlarini umumlashtirib va tartibga solib, (o‘zi maxsus tajribalar otkazmasdan) 1874 yilda "gastrey" nazariyasini yaratgan. Nazariyaga ko‘ra ko‘p hujayralilar embrional rivojlanishda gastrula stadiyasida ichki ikkinchi embrion varag‘ini blastula devorini blastula bo‘shlig‘iga botib kirishi- invaginatsiya natijasida hosil bo‘lishi bu fikrni tasdiqlaydi. Gekkel fikricha ko‘p hujayralilarning dastlabki ajdodi kaloniyadan bir bo‘lagini ikkinchi bo‘lagi ichiga botib kirishi natijasida hosil bo‘lgan; gastrula bo‘shlig‘i birlamchi ichak bo‘shlig‘iga aylangan, u og‘iz teshigi bilan tashqariga ochilgan. Gekkel ” gastrey ” deb bu gipotik organizm suvda kibriklari yordamida suzib yurgan; jinsiy ko‘paygan.

Fagotsitella nazaryasi. Bu nazariyani 1886 yild I.I .Mechnikov asoslab berdi. Tuban tuzilgan ko‘p hujayralilarning gastrula stadiyasi invaginatsiya yo‘li bilan emas , balki ayrim hujayralarning blastula bo‘shlig‘i ( blastasel) ga ko‘chisi- immigratsiya natijasida hosil bo‘lgan. Keyinchalik ichki hujayralar tig‘iz joylashuvi bilan birlamchi ichak bo‘shlig‘i gastrotsel , keyinroq birlamchi og‘iz blastopor hosil bo‘ladi. Mechnikov ham Gekkel singari ko‘p hujayrali hayvonlarni kaloniyali bir hujayralilardan kelib chiqqanligini tan oladi. Lekin uning ko‘rsatishicha ichki qavat qutblardan biridagi hujayralarning botib kirishi bilan emas, balki hujayralarning ichki bo‘shliqqa ko‘chib o‘tishi tufayli hosil bo‘ladi. Hujayralarni ichki boshliqqa o‘tishi ularni oziqni hazm qilishiga ixtisoslashuvi

bilan bog‘liq. Shuning uchun ham I.I.Mechnikov bunday hujayralarni fogositobalstlar o‘z nazariyasini esa ” fagotsitella” deb ataydi. A.A. Zaxvatkinning fikricha, E. Gekkelning ”Gastreya” va I.I.Mechniko‘vning ”Fagotsitella” nazariyalari ko‘p hujayralilarning kelib chiqishini aniq aks ettirmaydi. Chunki blastula va gastrula voyaga yetgan organizmlar ajdodlari tuzilishini ifodalamaydi, balki turlarni tabiatda tarqalishiga imkon beruvchi erkin hayot kechiradigan lichinkalari hisoblanadi. Ko‘p hujayralilarning qadimgi ajdodlari kaloniya bo‘lib yashaydigan g‘ovak tanlilar va gidroid poliplar singari o‘troq hayot kechirishga o‘tgan hayvonlar bo‘lgan. Lekin bu fikr haqiqatdan ancha yiroq deyish mumkin. Chunki hazm sistemasi rivojlanmagan va sodda o‘troq hayvonlardan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan hayvonlarni kelib chiqishiga ishonib bo‘lmaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umurtqasizlar zoologiyasi O. Mavlonov, Sh, Xurramov, X , Eshova
- 2 "Umurtqasizlar zoologiyasi" Edvard E.Ruppert, Richard S. Foks, Robert, D.Barns.